

HARAKATLI O`YINLAR VA ULARNI TO`G`RI TASHKIL ETISH

Xabibillayeva Iroda Jaloliddin qizi

Namangan shaxar 9-umumta`lim maktabi o`qituvchisi

Annotatsiya. Sport turlari judayam ko`p. Uni o`rgatishda esa turli metod va usullardan foydalanib kelishmoqda. Keyingi yillarda esa zamon yanada shiddatlashib, aynan o`yin turlariga mos holda turli harakatli o`yinlarni qo`llagan holda trener va ustozlar juda ko`plab yutuqlarga erishmoqdalar. Ayniqsa bu jarayonni maktabgacha va maktabning boshlang`ich sinf o`quvchilarida qo`llash o`quvchida jismoning sifatlarini o`shishiga, induvudial va antropometrik xususiyatlari takomillashiga asosiy vosita bo`lib xizmat qilmoqda.

Kalit so`zlar. Jismoniy sifat; induvudial xususiyat; o`yin jarayoni; o`yin metodikasi; liderlik xususiyati; qiziqishlar

Xozirda sport turlarini rivojlantirishda, takomillashtirishda juda ko`p samarali vosuta va usullardan foydalanib kelishmoqda. Qachonki qaysidir sport turi bilan shug`ullanuvchi unda yoqimli xordiq, kuchli emotsiya va mamnunlik sezragina bu sport bilan bilan shug`ullanadi va rivojlana oladi. Bu narsani esa ko`proq bolalarda takomillashtirish trener yoki o`qituvchidan juda katta pedagogik mahorat talab etadi. O`z soxasini mutaxassisi esa bundan juda kichik va oqilona yechim bilan chiqib keta oladi. Bunga misol qilib, o`yinlarni o`rganuvchiga tez va qiziqarli yetkazish, yani ularni o`zlashtirishiga yordam berish uchun ularniturli xarakatli o`yinlar orqali tayyorlashdir. Ayniqsa bu jarayonni maktabgacha va boshlang`ich ta`limdagi bolalarda keng tadbiiq qilish yahshi samara beradi. O`yin jarayoniga rahbarlik qilish metodikasini egallagan yahshi egallagan trener yoki ustoz haraktli o`yinlarni tanlashi va ularni maxus sport turiga oidligiga va bolani yoshiga, qiziqishlariga ko`ra tanlay oladi. Harakatli o`yinlarni tanlashda yana bolaning sog`ligi, antropometriyasi, bolalarning induvudial xusiyatlari, kun tartibiga ko`ra tanlanadiki, bunda o`yinlar mavsumga, bola onginging o`shishi, ko`nikma malakaning paydo bo`lishiga ko`ra yanada murakkablashtirib borilaveradi.

O`yin jarayoni o`yining turlariga qarab xar hil o`tadi, bunda eng avvalo ahamiyat beriladigan narsa bu o`yinning bolalar uchun qiziqarli, bolalarni quvnata oladigan va bu jarayonni yanada tezroq boshlanishini intiqlik bilan kutadigan holatda to`g`ri metodik sistemada olib borish lozim. Dars yoki mashg`ulot jarayonini olib borishda avvalo o`rgatuvchi o`quvchilarga dastlab ushbu harakatli o`yn xaqida to`liq ma`lumot beradi, uning qoidalarini yahshilab tushuntirib beradi. Qachonki bola o`yin qoidalarini to`g`ri anglamagan xolatida o`yin jarayoniga to`g`ri yondasha olmaydi va bu o`laroq

tez zerikib qoladi. O`rgatuvchi bolalarning jismoniy xolatini yahshi bilgan xolatida, bu jarayonga to`g`ri yondashish uchun kuchli bolani kuchsiz bola bilan, yoki tezkor bolani biroz sustroq bola bilan bir jamoaga yoki kichik guruhga birlashtiradi. Bunda bolada liderlik faoliyati oshib, yanada ishtiyoqi oshadi va keyingi o`yinda u tobora o`zini rivojlantirib boradi. O`rgatuvchi harakatli o`yinlarni tuzishda o`yinlarni turlicha va turli jismoniy sifatlarni rivojlantirishga e`tiborini qaratishi lozim. Masalan bir mashg`ulot paytida tezkorlik va chaqqonlik sifati rivojlantirishga qaratilsa boshqa mashg`ulot vaqtida egiluvchanlik, kuchni rivojlantirishga qaratilishi lozim. Harakatli o`yinlar davomida o`quvchilarda turli ijodkorlik va g`oyalar tug`ilishiga sabab bo`lib shu o`yinni qaysidir predmetiga o`zgarirish kiritishi ham mumkin. O`rgatuvchi o`yin davomida turli syujet va voqealar asosida o`yin tashkil etganda qiziqaliligi yanada ortadi. Bu jarayon bolada o`yinni davom ettirishga layoqatni va o`zining holatida ijodiy, estetik qobiliyatini ham rivojlantirib boradi.

Xulosa o`rnida shuni aytish lozimki; Qaysi sport turi bo`lmasin uni turli harakatli o`yinlar orqali o`rgatish bolalarda, ayniqsa maktabgacha va maktabning boshlang`ich sinf o`quvchilarida jismoniy sifatlarni o`rnatishga, individual xususiyatlarini takomillashtirishga, ularda bu jarayon orqali turli qobiliyatlarini namoyon etishga sabab bo`ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R.Rasulov, M.Qalandarov. "Boshlang`ich sinflarda harakatli o`yinlar. O`quv qo`llanma – T.2006-yil
2. Qurbonova M.A. Qosimova M.U Milliy va harakatli o`yinlar O`quv – uslubiy qo`llanma.
3. Nasriddinov F.N, Qosimov.A.Sh O`zbek milliy o`yinlari.